

IQTISODIY XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI

Saidov Suhrob

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda mamlakatimizda ichki va tashqi xavf-xatarlarga qarshi barqarorligini, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ta'minlash, milliy resurslar va boyliklarni himoya qilish hamda ijtimoiy farovonlikni saqlashga qaratilgan holatdir. Bu tushuncha, inflyatsiya, ishsizlik, tashqi iqtisodiy bosimlar va resurslar taqsimoti kabi omillarni o'z ichiga olgan holda, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlashni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Xavfsizlik, ichki tahdidlar, tashqi tahdidlar, erkinlik, turmush darajasi, institutsional sharoitlar.

Kirish. O'zbekiston siyosatining bosh yo'nalishi bevosita xavfsizlikka qaratilgan bo'lib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini mustahkamlashdan iboratdir. Xavf-xatarlar orasida iqtisodiy sabablar birlamchidir. Chunki bozor iqtisodiyoti rivojlangani sari unga dastlab xos bo'lgan tarqoqlik, stixiyalik, alohidalashuv, o'z manfaatini ustun qo'yish kabilar cheklanadi. Xavf-xatarni ijtimoiy beqarorlik ham hosil qiladi. Ijtimoiy munosabatlardagi keskinlik, ishsizlik va qonunga itoat etmaslik kabi hodisalar iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin.

Iqtisodiy manfaatlar va tahdidlar.

Jamiyatda inson, xo'jalik subyektlarining faoliyati ularning ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida amalga oshiriladi. Ehtiyoj kishilar hayotini saqlash, inson organizmi va shaxsni rivojlantirish uchun uning zaruriy ne'matlarga va narsalarga bo'lgan obyektiv zarurati hisoblanadi.

Tahdidlar ham 2 turga bo'linadi: Ichki va Tashqi tahdidlar.

Ichki tahdidlar:

Mamlakatning ichki iqtisodiy sohadagi xavfsizligi tabiiy, texniktexnologik, infratuzilmaviy, ijtimoiy hamda boshqa makro va mikroiqtisodiy rivojlanish omillari, ichki immunitet va beqarorlik, tangliklar ta'siridan himoylanish orqali ta'minlanadi. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki omillarga quyidagilarkiradi: – ilgari tizimdan biryoqlama, tarkibi deformatsiyalshgan iqtisodiyotning meros qolganligi; – ko'pchilik tarmoqlarning qoloq texnologik bazaga, yuqori energiya va resurs sig'imiga egaligi sababli milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi; – iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi; – yuqori darajadagi inflyatsiya; – infratuzilma obyektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va mustahkam emasligi; – mineral xom ashyo

bazalarining kam o'rganilganligi va xo'jalik oborotiga tortilish imkoniyatlarining yetarli emasligi; – mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fantexnika rivojlanishining ayrim yo'nalishlarida ilg'or o'rinlarning boy berilishi, boshqa faoliyat sohalarida intellektual mehnat obro'sining tushib ketishi;

Tashqi tahdidlar:

Ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagilar taqozo etiladi: birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etish bilan milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratish; ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi: – eksport tarkibida xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo'qotilishi; – mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi, bog'liqligi; – tashqi qarzlarning o'sib borishi; – eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bojxona chegaralarining yopiq emasligi; – raqobatga bardoshli eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarining rivojlanmaganligi hamda import tarkibining rasional emasligi; – eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivojlanmaganligi. Eksport tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin ko'tarilib ketish tashqi bozorga nihoyatda bog'liq bo'lgan iqtisodiyot uchun o'ta xavfli hisoblanadi. Tashqi tahdidlar ayrim ichki tahdidlarning xavfi ortishiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy xavfsizlikning tashqi tahdidlari quyidagilarni qamrab oladi: ijtimoiy hayotning iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, ekologik, axborotga oid va boshqa sohalarini.

Xulosa:

Iqtisodiyot xavfsizligi – bu mamlakat iqtisodiy tizimining barqarorligi, mustaqilligi va tashqi hamda ichki tahdidlarga bardosh berish qobiliyatini ta'minlashni anglatadi. Bu tushuncha milliy manfaatlarni himoya qilish, iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish va strategik rivojlanishni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash quyidagilarni talab qiladi:

1. Energetik mustaqillik va resurslarni boshqarish: Mamlakat energetika manbalariga bo'lgan ehtiyojini qoplash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.
2. Diversifikatsiya va innovatsiya: Iqtisodiyotning turli sohalarida rivojlanishni ta'minlash, texnologik yangiliklarni joriy etish zarur.
3. Moliyaviy barqarorlik: Inflyatsiya, davlat qarzi va valyuta kurslari ustidan nazoratni saqlash.

4. Tashqi savdo balansini ta'minlash: Eksport va importni balanslash, strategik ahamiyatga ega tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Iqtisodiy xavfsizlikning muhim elementi bu ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlarga nisbatan samarali choralar ko'rishdir. Bu maqsadga erishish uchun davlat siyosati, xususiy sektor va jamoatchilikning faol hamkorligi talab etiladi. Shu bilan birga, xalqaro iqtisodiy hamkorlik va raqobatbardoshlikni oshirish ham iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashning ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6079 об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации.

2.V. A. Plotnikov, Proceedings of St. Petersburg State University of Economics, 4 (112), 16-24 (2018).

3.Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). Understanding the Digital Economy. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA

4.Кобулов В.К. (1998) Алгоритмизация в социально-экономических системах. Tashkent: Fan, 320 s. (Kobulov V.K. (1998) Algorithmization in socio-economic systems. - Tashkent: Fan, 320 p.)

5.Muminova, E., Honkeldiyeva, G., Kurpayanidi, K., Akhunova, S., & Hamdamova, S. (2020). Features of Introducing Blockchain Technology in Digital Economy Developing Conditions in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 159, p. 04023). EDP Sciences.

6. . Boboqul o'g'li, H. S., & Shaxlo, U. (2024). INVESTITSIYALAR UCHUN RISKLAR VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI. Miasto Przyszłości, 49, 535-54